

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**BUXGALTERIYA HISOBIGA KIRISH
FANINING O‘QUV DASTURI**
(masofaviy ta’lim shakli)

Bilim sohasi:	400000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000	- Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410200	- Buxgalteriya hisobi

Mazkur o'quv dasturi "Iqtisodiyot" fakulteti Kengashining 2026-yil 26.06 11-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur o'quv dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 17.06 11-sonli yig'ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

Alikulov A.I. – professor , iqtisodiyot fanlari doktori, SamDVMChBU
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası mudiri
Yorbekova D.M. – SamDVMChBU "Buxgalteriya hisobi va audit " kafedrası
assistenti

Taqrizchilar:

M.Sh. Mardonov – i.f.b.f.d. (PhD), dotsent , Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası mudiri
Muxammadiyev Z. - i.f.d. (DSc), "Saturn Metal Qayta Ishlash" MChJ
direktori

1. Fan ma'lumotlari					
Fan/modul kodi B XK1305	O'quv yili 2026-2027	Semestr 3		ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	O'quv rejadagi tartib raqami 60410200 – 1.16		Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi Buxgalteriya hisobiga kirish	Jami yuklama (soat)	Auditoriya mashg'ulotlari jami – 60 soat, shundan:		Mustaqil ta'lim (soat)	Kurs ishi
		Ma'ruza	Amaliy		
	150	30	30	90	-

2. Fanning mazmuni
Fanning maqsadi – talabalarda xo'jalik hisobining turlari, buxgalteriya hisobining xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari, ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi harakati, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va umumlashtirish, buxgalteriya hisobini tashkil qilish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga xo'jalik yurituvchi subyektlardagi mablag'lar, ularning tashkil topish manbalarining harakatini to'g'ri aks ettirish, hisobotlarni tuzish, korxonalarda buxgalteriya hisobi yordamida shakllanadigan davriy, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini realligini ta'minlash, tashkilotlar bilan hisoblashishlarni to'g'ri tashkil qilishni davlatimiz qonunlari, hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar asosida o'rgatishdan iborat.

3. Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar
1. (BHK1405) - Boshqaruv hisobiga kirish
2. (MHA1405) - Moliyaviy hisob asoslari
3. (BBXH1305) - Biznesda buxgalteriya hisobi

4.	Ta'lim natijalari (TN)
	<i>Kasbiy kompetensiyalar:</i>
TN1	Buxgalteriya hisobining predmeti va metodi, obyektlari va subyektlari, funksiyalari va tamoyillari, buxgalteriya hisobi metodi elementlari haqida bilimga ega bo'lishlari kerak;
TN2	Xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari, biznes jarayonlari hisobi, buxgalteriya hisobi registrlari va shakllari, buxgalteriya hisoboti tuza olishi;

TN3	Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish va hisob registrlarida aks ettirish tartibi hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari to'g'risida bilimga ega bo'lishlari kerak;
TN4	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun buxgalteriya hisobi va hisobot ma'lumotlarini qayta ishlashni bilishlari lozim;
	Ko'nikmalar:
TN5	Buxgalteriya balansini tuzish, joriy buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish, inventarizatsiya o'tkazish va natijasini rasmiylashtirishni bilishi;
TN6	Buxgalteriya bo'limida ishni tashkil qilish, xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish, asosiy xo'jalik jarayonlarini hisobga olishni bilishi;
TN7	Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish, moliyaviy hisobot shakllarini tuzish va taqdim etishni bilishi kerak.

5.	Fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli:	Soat
	Ma'ruza (M)	30
M1	Xo'jalik hisobi haqida tushuncha. Hisob haqida tushuncha. Xo'jalik hisobining ta'rifi, funksiyalari va turlari (statistik hisob, operativ hisob va buxgalteriya hisobi). Buxgalteriya hisobining boshqa hisob turlaridan farqli xususiyatlari. [1,2]	2
M2	Buxgalteriya hisobi rivojlanishining tarixiy jihatlar. Buxgalteriya hisobini vujudga keltirgan shart-sharoitlar. Turkiy xalqlar tarixida hisob va hisobotning ildizlari. Zamonaviy buxgalteriya hisobining rivojlanish maktablari. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi milliy tizimining barpo bo'lishi va rivojlanishi. [1,2]	2
M3	Buxgalteriya hisobiga kirish fanining umumiy tavsifi. Buxgalteriya hisobining mohiyati va ahamiyati. Buxgalteriya hisobiga kirish fanining boshqa o'quv fanlari bilan aloqadorligi. Buxgalteriya hisobining boshqaruv tizimidagi funksiyalari va ularning mazmuni. Hisobda qo'llaniladigan o'lchovlar, ularning ahamiyati. [1,2]	2
M4	Buxgalteriya hisobiga kirish fanining predmeti va metodining elementlari. Buxgalteriya hisobiga kirish fanining predmeti. Buxgalteriya hisobining obyektlari. Buxgalteriya hisobining metodining elementlari. [1,2]	2
M5	Buxgalteriya balans va uning mazmuni. Buxgalteriya balansining mazmuni va mohiyati. Xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya balansiga ta'siri va balans axborot manbai ekanligi. Xo'jalik operatsiyalari ta'sirida balansda sodir bo'ladigan o'zgarishlar. [1,2]	2
M6	Buxgalteriya hisobining schyotlari va ikkiyoqlama yozuv. Buxgalteriya hisobi schyotlarining mazmuni, tuzilishi va tarkibi.	2

1.	Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik -Toshkent 2020.-400 b.
2.	Abdovaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X., 3.Buxgalteriya hisobi. Darslik. -Toshkent: 2019. – 406 b.
3.	Ergasheva Sh. Temirov F. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi. Nashr yili: 2021.-292 b.
Qo'shimcha adabiyotlar	
4.	Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISODIYOT, 2021. – 283 bet
5.	Хасанов Б.А., Хашимов А.А. ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби. Darslik. –Т.: “Иқтисодийёт дунёси”, 2021 – 249 б
6.	Principles of Auditing. An Introduction to International Standards on Auditing Rick Hayes, Roger Dassen, Arnold Schilder, Philip Wallage. 2005.
Axborot manbaalari	
7.	https://www.cengageasia.com/title/default/detail?isbn=9781473786820
8.	https://www.zambiancu.org/1zRead/GruberJ-2008-public-finance-and-public-policy.pdf

tasavvurga ega bo'lsa; ➤ fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa; ➤ berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa; ➤ konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa; ➤ mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa; ➤ barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan bo'lsa; ➤ nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo'llay olish; ➤ tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.	
b) 4 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ➤ fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa; ➤ fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa; ➤ fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa; ➤ fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa; ➤ barcha amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga harakat qilgan bo'lsa.	
d) 3 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ➤ fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa; ➤ fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa; ➤ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa; ➤ bayon qilish ravon bo'lmasa; ➤ fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa; ➤ fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.	
e) quyidagi hollarda talabning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin: ➤ fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik ko'rilmagan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa; ➤ fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajarmagan bo'lsa; ➤ fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa; ➤ fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; ➤ fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa; ➤ fanni bilmasa.	

10.	Foydalanilgan adabiyotlar
	Asosiy adabiyotlar

	<i>Buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi, uning tuzilishi, mohiyati va mazmuni. Xo'jalik operatsiyalarini schyotlarda ikki yoqlama aks ettirish. Balans, schyotlar va ikkiyoqlama yozuvning o'zaro bog'liqligi. [1,2]</i>	
M7	Xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirish. Buxgalteriya hujjatlari haqida tushuncha. Hujjatlarning buxgalteriya hisobi, nazorat, hujjatli taftish, xo'jalik faoliyatini tashkil etishga doir tezkor ishlarni amalga oshirishdagi roli. Hujjatlar aylanishi, arxivi va saqlanishini tashkil etish. Elektron hujjat, elektron raqamli imzo. [1,2]	2
M8	Buxgalteriya hisobida aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish. Inventarizatsiya – buxgalteriya hisobi metodining elementlaridan biri. Inventarizatsiyaning turlari. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish, hisob va hisobotda aks ettirish. [1,2]	2
M9	Buxgalteriya hisobida aktivlar va majburiyatlarni baholash. Buxgalteriya hisobi obyektlarini qiymat o'lchovida ifodalash (baholash) ning mohiyati, ahamiyati va xususiyatlari. Baholash turlari. Balansning ayrim moddalarini baholash metodlari. Majburiyatlarni baholash tartibi. [1,2]	2
M10	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannaxrini kalkulyatsiyalash. Kalkulyatsiyaning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Kalkulyatsiyaning normativ va tashkiliy-uslubiy asoslari. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannaxrini kalkulyatsiyalash usullari. [1,2]	2
M11	Biznes jarayonlari hisobi tamoyillari. Biznes jarayonlari to'g'risida tushuncha. Ta'minot jarayoni, ishlab chiqarish jarayoni, realizatsiya jarayonlarini hisobga olishning mazmuni, vazifalari va uslubi. Daromadlar va xarajatlarni hisobga olish usullari. [1,2]	2
M12	Buxgalteriya hisobining registrarlari va shakllari. Buxgalteriya hisobi registrarlari, ularni turkumlash, rasmiylashtirish va xatolarni tuzatish. Xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish jarayoni. Hisob yozuvlarining guruhlari va turlari bo'yicha hisob registrarlari turkumlash: daftarlar, kartochkalar va alohida varaqalar (vedomostlar) va b. Buxgalteriya hisobining asosiy shakllari va ularni yurtish printsiplari. [1,2]	2
M13	Buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti. Buxgalteriya hisobotining mohiyati, ahamiyati, tayinlanishi va turlari. Moliyaviy hisobotning mazmuni, mohiyati va tarkibi. Buxgalteriya hisobotlarining qonunchilikka muvofiqligini tasdiqlovchi auditorlik tekshiruvlar va xulosalar. Moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar. [1,2]	2

M14	Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi va uning asosiy elementlari. Buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish vazifalari, prinsiplari, tizimi va uning asosiy elementlari. [1,2]	2
M15	Korxonaning hisob siyosati. Korxonaning hisob siyosati, uning ahamiyati va vazifalari. Hisob siyosatini shakllantirish tartibi, bosqichlari va prinsiplari. Hisob siyosatining tarkibi. [1,2]	2
	Amaliy mashg'ulot (A)	30
A1	Xo'jalik hisobining mohiyati va ahamiyati.	2
A2	Buxgalteriya hisobi rivojlanishining tarixiy jihatlari.	2
A3	Buxgalteriya hisobiga kirish fanining predmeti va obyektlari.	2
A4	Buxgalteriya hisobi metodining elementlari.	2
A5	Buxgalteriya balansi, uning tuzilishi va undagi o'zgarishlar.	2
A6	Xo'jalik operatsiyalarini schyotlarda ikki yoqlama aks ettirish.	2
A7	Hujjatlarning buxgalteriya hisobi, nazorat, hujjatli taftish, xo'jalik faoliyatini tashkil etishga doir tezkor ishlarni amalga oshirishdagi roli.	2
A8	Korxona aktivlari va majburiyatlari haqidagi ma'lumotlarni haqqoniy va ishonarli aks ettirishda inventarizatsiyaning ahamiyati.	2
A9	Buxgalteriya hisobi obyektlarini qiymat o'lchovida ifodalash (baholash) ning mohiyati, ahamiyati va xususiyatlari.	2
A10	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiyalash usullari.	2
A11	Biznes jarayonlari to'g'risida tushuncha: ta'minot, ishlab chiqarish va realizatsiya.	2
A12	Xo'jalik operatsiyalarini hisobda aks ettirish jarayoni.	2
A13	Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining mohiyati, ahamiyati, tayinlanishi va turlari.	2
A14	Buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish vazifalari, prinsiplari, tizimi va uning asosiy elementlari.	2
A15	Hisob siyosatining tarkibi: umumiy qoidalar, uslubiy ta'minot, tashkiliy-texnik ta'minot.	2

6.	Mustaqil ta'lim topshiriqlari*	90
1	Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish.	6
2	Buxgalteriya hisobining metodining elementlari.	6
3	Buxgalteriya balansining mazmuni va tuzilishi.	6
4	Xo'jalik operatsiyalarini schyotlarda ikki yoqlama aks ettirish.	6
5	Buxgalteriya hisobi schyotlarining turkumlanishining nazariy va amaliy ahamiyati.	6
6	Elektron hujjat, elektron raqamli imzo.	6

7	Aktivlarni inventarizatsiya qilish, natijalarini rasmiylashtirish, hisob va hisobotda aks ettirish.	6
8	Majburiyatlarni inventarizatsiya qilish, natijalarini rasmiylashtirish, hisob va hisobotda aks ettirish.	6
9	Ta'minot jarayoni va uni hisobga olish.	6
10	Ishlab chiqarish jarayoni va uni hisobga olish.	6
11	Realizatsiya jarayoni va uni hisobga olish.	6
12	O'zbekistonda buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi va uning elementlari.	6
13	Zamonaviy buxgalteriya hisobining rivojlanish maktablari.	6
14	O'zbekistonda buxgalteriya hisobi milliy tizimining barpo bo'lishi va rivojlanishi.	6
15	Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiq isloh qilish.	6

**Izoh: Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo'ljallangan.*

7.	Ta'lim texnologiyalar va metodlari
	➤ ma'ruzalar; ➤ amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; ➤ interfaol keys-stadilar; ➤ blits-so'rov; ➤ guruhlarda ishlash; ➤ taqdimotlarni qilish; ➤ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
8.	Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar
	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

9.	Talabalar bilimini baholash mezonlari
	a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ➤ fanning mohiyati va mazmunini to'liq yorita olsa; ➤ fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa; ➤ fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq